

«Boeing» kompaniyasi Toshkentda «Uzbekistan Airways» AJ mutaxassislari uchun qisqa muddatli trening o‘tkazmoqda

2021 17 Sentabr

2021-yil 15-sentabrdan «Boeing» kompaniyasi «Uzbekistan Airways» AJ xodimlari uchun qisqa muddatli treningni boshladi. Unda fuqaro aviatsiyasi sohasiga oid yangi bilimlarni taqdim etish mo‘ljallangan.

Trening doirasida aviakompaniyaning strategik rivojlanish rejasi, soha bozorini tahlil qilish, yo‘nalish tarmog‘ini ishlab chiqish va rejalashtirish, havo kema parkini rivojlantirish rejalarini tayyorlash, aviakompaniya daromadlarini boshqarish va raqamlashtirish masalalari kabi mavzular muhokama qilinadi.

Mashg‘ulotlar 2021-yil 22-sentyabrgacha davom etadi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways